



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

Yillik hisobot 2025



Vazirlik va idoralarning
ichki audit xizmatlari
faoliyatini baholash
natijalari

www.imv.uz

Toshkent 2026-yil

MUNDARIJA

REZYUME	3
1. ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASHNING QONUNCHILIK ASOSLARI VA TASHKIL ETILISHI	4
1.1. Baholashga oid amaldagi qonunchilik	4
1.2. Baholash bo'yicha savolnoma	4
1.3. 2025-yil uchun baholash rejasi.....	6
2. BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA UMUMIY MA'LUMOTLAR	6
3. BAHOLASH NATIJALARI ASOSIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH UCHUN KIRITILGAN TAKLIFLAR HAMDA ULARNING IJROSI	10
4. REJALASHTIRILGAN ISHLAR.....	11
5. YAKUNIY QISM	12
Vazirlik va idoralar kesimida baholash natijalari (<i>ilova</i>)	13

REZYUME

Bugungi kunda vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari (keyingi o'rinlarda – ichki audit xizmatlari) **budjet intizomini mustahkamlash** (I), **budjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish** (II), **budjet tizimi budjetlaridan foydalanish samaradorligini baholash** (III) maqsadida faoliyat olib bormoqda.

O'z navbatida, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, ichki audit faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash hamda faoliyatni takomillashtirib borish maqsadida **lqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash** (keyingi o'rinlarda - baholash) **amalga oshirildi**.

Baholash ichki audit xizmatlari faoliyatini tegishli qonunchilik hujjatlari asosida tashkil etilishi, xavf tahlili tizimining yo'lga qo'yilishi, ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi, audit tadbirlari natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiya (chora-tadbir)larning ijro etilishi va xodimlarning malaka darajasini qamrab olgan **7 ta** yo'nalishdagi namunaviy savolnomaga ball berish orqali amalga oshirildi.

Ma'lumot uchun: Baholash natijalariga ko'ra, ichki audit xizmati faoliyatining sifat darajasi 90 foiz va undan yuqori bo'lganda "yuqori", 70-90 foiz oralig'ida bo'lganda "o'rta", 70 foizdan kam bo'lganda "past" deb baholanadi.

2025-yilda baholash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, ichki auditga oid qabul qilingan qonunchilik hujjatlari va baholash amaliyotidan kelib chiqib, baholash savolnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi va buning natijasida savollar soni **17 taga** ko'paygan holda **58 tani** tashkil etdi.

2025-yilda **5 turdagi** xavf omillarining tahlili asosida tanlab olingan **11 ta** vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlarida (*jami ichki audit xizmatlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarning* **22 foizi**) **baholash o'tkazildi**.

Baholash natijasiga ko'ra, **2 ta (18%)** vazirlikda ichki audit xizmatlarining faoliyati "**yuqori**" va yana **6 ta (55%)** vazirlik va idoralarda "**o'rta**" hamda qolgan **3 ta (27%)** vazirlikda "**past**" darajada baholandi (*jamlanma ma'lumot mazkur hisobotning* **2-bo'limida** keltiriladi).

Baholash doirasida quyidagi masalalarni o'z ichiga oluvchi **chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilib, vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari tomonidan tasdiqlandi:**

ichki audit xizmatlarining ichki hujjatlarini (nizom va lavozim yo'riqnomalarini) ichki auditga oid qonunchilikka muvofiqlashtirish;

yillik reja uchun xavf tahlilinin sifatini yanada oshirish;

ichki audit tadbirlarining o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishini qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash;

har chorakda bir moliyaviy masalaga (davlat xaridlari, ish haqi, qurilish-ta'mirlash, asosiy vositalar hisobi kabi) qaratilgan rejadan tashqari ichki audit tadbirlarini o'tkazish orqali tizimli muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish amaliyotini yo'lga qo'yish;

ichki audit xizmatining ochiqqligini ta'minlash maqsadida faoliyat natijalarini muntazam ravishda jamoatchilikka e'lon qilib borish;

xodimlarning malakasini oshirib borish va kadrlar zaxirasini shakllantirish;

ichki audit xizmatlarida ichki baholashni yo'lga qo'yish.

1. ICHKI AUDIT XIZMATLARI FAOLIYATINI BAHOLASHNING QONUNCHILIK ASOSLARI VA TASHKIL ETILISHI

1.1. Baholashga oid amaldagi qonunchilik

Mamlakatimizda ichki audit xizmatlari faoliyatining ichki auditga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o'rganish maqsadida, ularning faoliyatini baholash amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Xususan, baholash jarayoni Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi nizomga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan har yili quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

ichki audit xizmatlari faoliyatiga oid ma'lumotlardan foydalangan holda xavf tahlilini amalga oshirish hamda mazkur tahlil natijalari asosida baholash o'tkaziladigan ichki audit xizmatlarini tanlab olish va baholash rejasini ishlab chiqish;

baholash to'g'risida vazirlik va idorani xabardor qilgan holda ichki audit xizmati faoliyatini o'n ish kunidan oshmagan muddatda baholash;

baholash natijalari bo'yicha ma'lumotnoma rasmiylashtirish, ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalar asosida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

ichki audit xizmatlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi monitoringini amalga oshirish.

Baholash natijasiga ko'ra, ichki audit xizmati faoliyatining sifat darajasi quyidagicha baholanadi:

90 foiz va undan yuqori bo'lganda, "yuqori";

70 foizdan (shu jumladan, 70 foiz) 90 foizgacha bo'lganda, "o'rta";

70 foizdan kam bo'lganda, "past".

Bunda, sifat darajasi ko'rsatkichi har bir yo'nalishdagi savollarga berilgan ballar yig'indisining ushbu yo'nalishdagi savollarga berilishi mumkin bo'lgan eng yuqori ballar yig'indisiga nisbatini belgilangan vaznga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

1.2. Baholash bo'yicha savolnoma

Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash belgilangan tartibda baholash bo'yicha namunaviy savolnomaga ball berish orqali amalga oshiriladi.

2025-yilda baholash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, ichki auditga oid qonunchilik hujjatlari hamda baholash amaliyotidan kelib chiqib, baholash savolnomasining quyidagi yo'nalishlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

ichki audit faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi yo'nalishiga **1 ta**;

ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi yo'nalishiga **3 ta**;

ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishiga **10 ta**;

chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yo'nalishi bo'yicha **5 ta**;

ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi hamda faoliyati samaradorligining baholanishi yo'nalishi bo'yicha **4 ta**;

ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar yo'nalishi bo'yicha **4 ta** qo'shimcha savollar kiritildi.

Shuningdek, savolnomadagi yo'nalishlarning ichki audit xizmatlari faoliyati samaradorligini ta'minlash va rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhimligidan kelib chiqib, ularga vazn belgilangan. (1-jadval).

**Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash bo'yicha namunaviy savollar yo'nalishlariga
belgilangan vaznlar miqdori**

T/r	Baholash savollari yo'nalishi	Vazn
1.	Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi, mustaqilligi hamda resurslar bilan ta'minlanishi	0,10
2.	Ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi	0,10
3.	Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi	0,20
4.	Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi	0,20
5.	Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi	0,20
6.	Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi hamda faoliyati samaradorligining baholanishi	0,15
7.	Ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar	0,05

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgandek, **ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi** (0,20), **ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi** (0,20) va **chora-tadbirlar rejasining bajarilishi** (0,20) yo'nalishlariga yuqori vazn belgilangan.

Bunga asosiy sabab sifatida ilg'or xalqaro tajribalarda, hususan, Jahon bankining Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik (PEFA) dasturi¹ tomonidan o'tkaziladigan baholash jarayonida ichki audit komponenti uchun ichki audit yillik rejalarining bajarilishi, ichki audit tadbirlarining o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi hamda taklif va tavsiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi asosiy indikatorlar hisoblanishini keltirib o'tish mumkin.

*Ma'lumot uchun: Mamlakatimiz vazirlik va idoralarining ichki audit xizmatlari faoliyati 2024-yilda Jahon bankining davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik (PEFA) mezonlari bo'yicha xalqaro ilg'or standartlarga **"muvofiq" (B+)** deb baholandi (2019-yilda ushbu natija **"qoniqarsiz" (D+)** deb baholangan).*

Shu bilan birga, 2025-yilda Jahon banki ko'magida tashkil etilgan Davlat moliyasini boshqarish bo'yicha xalqaro hamkorlik ta'lim dasturi (PEMPAL) Ichki audit hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarning muvaffaqiyat hikoyalari (**PEMPAL Success Stories**) qatorida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan **ichki audit islohotlari va erishilgan natijalar to'g'risida** "Ichki audit kelajagini shakllantirish" mavzusida **PEMPAL hamjamiyatining maqolasi**² e'lon qilindi.

¹ Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik samaradorligini baholash uslubiyoti
<https://www.pefa.org>

² <https://www.pempal.org/uzbekistan-shaping-future-internal-audit>

1.3. 2025-yil uchun baholash rejasi

Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 22-fevraldagi 23-43-sonli buyrug'i bilan 2025-yil uchun vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash yillik rejasi tasdiqlandi.

Mazkur rejaga xavf tahlili asosida tanlab olingan yuqori xavf darajasiga ega ichki audit xizmatlari kiritilgan.

2-jadval

Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash yillik rejasi

T/r	Vazirlik va idora nomi	Baholash o'tkazish muddati
1.	Transport vazirligi	17.03.2025 – 28.03.2025
2.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	07.04.2025 – 18.04.2025
3.	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi	28.04.2025 – 08.05.2025
4.	Madaniyat vazirligi	19.05.2025 – 30.05.2025
5.	Adliya vazirligi	09.06.2025 – 20.06.2025
6.	Qishloq xo'jaligi vazirligi	30.06.2025 – 11.07.2025
7.	Yoshlar ishlari agentligi	11.08.2025 – 22.08.2025
8.	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	22.09.2025 – 03.10.2025
9.	O'zarxiv agentligi	13.10.2025 – 24.10.2025
10.	Fanlar akademiyasi	03.11.2025 – 14.11.2025
11.	Kadastr agentligi	24.11.2025 – 05.12.2025

2. BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA UMUMIY MA'LUMOTLAR

Yillik rejaga muvofiq 2025-yil davomida o'tkazilgan baholash natijasiga ko'ra, **Transport vazirligi** (62,2%), **Ekologiya vazirligi** (64,3%), **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi** (66,7%), ichki audit xizmatlari faoliyatining sifat darajasi «**past**», Kadastr agentligi (72,3%), Yoshlar ishlari agentligi (75,7%), Madaniyat vazirligi (81,3%), Fanlar akademiyasi (82,3%), Texnik jihatdan tartibga solish agentligi (86,1%), O'zarxiv agentligi (88,7%) ichki audit xizmatining sifat darajasi «**o'rta**» hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi (91,6%), Adliya vazirligi (92,4%) ichki audit xizmati faoliyatining sifat darajasi «**yuqori**» darajada baholandi (1-rasm).

Ma'lumot uchun, 2025-yilning birinchi yarmida baholash o'tkazilgan **5 ta vazirlik va idoralar** ichki audit xizmatlarning baholash natijalari bo'yicha **yarim yillik hisobot** Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi.

O'z navbatida, **2024-yilda** baholash o'tkazilgan Madaniyat vazirligi (73,3%), Qishloq xo'jaligi vazirligi (73,7%), O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (56,6%) hamda Fanlar akademiyasi (67,1%) ichki audit xizmatlarining **sifat darajasi joriy yilda o'sishiga erishilgan** (2-rasm).

2025-yilda ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash natijalari

T/r	Nazorat savollari yo'nalishi	Adliya vazirligi	Qishloq xo'jaligi vazirligi	O'zarxiv agentligi	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi	Fanlar akademiyasi	Madaniyat vazirligi	Yoshlar ishlari agentligi	Kadastr agentligi	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	Ekologiya vazirligi	Transport vazirligi
Sifat darajasi (foizda)		92,4%	91,6%	88,7%	86,1%	83,8%	81,3%	75,7%	72,3%	66,7%	64,3%	62,2%
1	Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi hamda faoliyati samaradorligining baholanishi	92%	100%	100%	83%	83%	83%	75%	100%	100%	100%	100%
2	Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi	100%	94%	89%	100%	100%	78%	100%	89%	83%	100%	78%
3	Ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar	92%	93%	100%	86%	100%	79%	92%	70%	83%	43%	92%
4	Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi	89%	100%	86%	96%	92%	75%	68%	68%	100%	61%	79%
5	Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi	100%	100%	100%	100%	67%	83%	50%	50%	67%	100%	67%
6	Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi	94%	88%	69%	50%	100%	100%	81%	44%	38%	56%	25%
7	Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi	88%	75%	94%	100%	56%	69%	75%	88%	25%	19%	38%

 – yuqori
  – o'rta
  – past

Yuqoridagi 1-rasmda baholash yo'nalishlari bo'yicha vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyatining sifat darajasi aks ettirilgan. Bunda, ichki audit xizmatining sifat darajasi har bir yo'nalish natijalaridan kelib chiqib aniqlangan.

Baholash jarayonida **ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi hamda faoliyati samaradorligining baholanishi** hamda **ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi, mustaqilligi va resurslar bilan ta'minlanishi** yo'nalishlari bo'yicha aksariyat vazirlik va idoralarda **"yuqori"** (90 foiz va undan yuqori) natijalar qayd etildi.

Shunday bo'lsada, **ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi** yo'nalishida *Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi* vazirligi **(19%)**, *Maktabgacha va maktab ta'limi* vazirligi **(25%)**, *Transport* vazirligi **(38%)**, *Fanlar akademiyasi* **(56%)** hamda *Madaniyat* vazirligida **(69%)** **"past"** darajadagi natijalar qayd etildi.

Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yo'nalishi bo'yicha *Transport* vazirligi **(25%)**, *Maktabgacha va maktab ta'limi* vazirligi **(38%)**, *Kadastr agentligi* **(44%)**, *Texnik jihatdan tartibga solish agentligi* **(50%)** hamda *Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi* vazirligida **(56%)** natijalar **"past"** darajada ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, baholashda **ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi** yo'nalishida ichki audit xizmati tomonidan ichki audit tadbirlari uchun **dastur ishlab chiqilmaganligi**, ichki audit tadbirlari **natijalari belgilangan tartibda rasmiylashtirilmaganligi** va **"Davlat auditi"** dasturiy kompleksiga **kiritilmaganligi** hamda faoliyati yuzasidan **birinchi rahbarga hisobotlar taqdim etib borilmaganligi** aniqlandi.

Bularning bajarilmaganligi sababli *Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi* vazirligi **(61%)**, *Kadastr agentligi* **(68%)** hamda *Yoshlar ishlari agentligida* **(68%)** nisbatan **"past"** darajadagi natijalar qayd etildi.


Shu bilan birga, **ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi** yo'nalishi bo'yicha ko'rsatkichlar boshqa yo'nalishlarga nisbatan past darajada qolmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida vazirlik va idoralarning **ichki audit xizmati to'g'risidagi (ichki) nizomi hamda ichki audit xizmati xodimlarining lavozim yo'riqnomalari** Ichki audit xizmati to'g'risidagi **namunaviy nizomga muvofiq holda ishlab chiqilmaganligini** (ichki hujjatlarda namunaviy nizomda belgilanmagan vazifalarning nazarda tutilganligini) keltirib o'tish mumkin.

Mazkur yo'nalishda *Kadastr agentligi* **(50%)**, *Yoshlar ishlari agentligi* **(50%)**, *Transport* vazirligi **(67%)** hamda *Maktabgacha va maktab ta'limi* vazirligida **(67%)** ichki audit xizmatlari faoliyati **"past"** darajada baholangan.

Savolnomaning **ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar** yo'nalishida ichki audit xizmatlari tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligining faoliyat yuzasidan **oldingi baholashda berilgan taklif va tavsiyalari bajarilmaganligi** hamda tizimdagi budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan **nobudjet muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan audit (nazorat) ishlariga oid hujjatlar monitoringi yuritilmaganligi** sababli *Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi* vazirligida **(43%)** **"past"** darajadagi natijalar qayd etildi.

Baholash natijalari bo'yicha vazirlik va idoralar kesimidagi batafsil ma'lumotlar mazkur Hisobotga **ilovada** keltirib o'tilgan.

2024–2025-yillarda ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash natijalari bo'yicha sifat darajasi (foizda)



Yuqoridagi rasmda 2024-2025-yillarda baholash o'tkazilgan vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlarining sifat darajasi (foizda) aks ettirilgan. Bunda, ichki audit xizmatlarining sifat darajasi har bir yo'nalish natijalaridan kelib chiqib aniqlangan.

Ushbu rasmda keltirilgan 2024-yilda baholash o'tkazilgan vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari joriy yilning baholash rejasini ishlab chiqishda o'tkazilgan xavf tahlili natijasiga ko'ra "yuqori" xavf darajasi bilan baholash rejasiga kiritilgan.

2025-yilda o'tkazilgan baholash natijasiga ko'ra **Qishloq xo'jaligi vazirligida** ichki audit xizmatining ichki hujjatlari belgilangan tartibda ishlab chiqilganligi (tasdiqlanganligi) hisobiga ichki audit xizmatining sifat darajasi 2024-yilga ("o'rta" darajada baholangan) nisbatan yaxshilanishiga erishilgan va **"yuqori" darajada baholandi**.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligida ichki audit tadbirlarining belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligi va qonunchilik hujjatlarining profilaktikasi yo'lga qo'yilganligi hamda **Fanlar akademiyasida** ichki audit yillik rejasining belgilangan tartibda ishlab chiqilganligi hisobiga ichki audit xizmatlarining sifat darajasi 2024-yilga ("past" darajada baholangan) nisbatan yaxshilanishiga erishilgan va **"o'rta" darajada baholandi**.

Madaniyat vazirligida ichki audit xizmatining mustaqilligi ta'minlanganligi hisobiga ichki audit xizmatining sifat darajasi 2024-yilga nisbatan foiz ko'rsatkichlarida yaxshilanishiga erishilgan va 81% bilan **"o'rta" darajada baholandi**.

Shuningdek, baholashda ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan berilgan taklif va tavsiyalar va ichki auditga oid qonunchilikning takomillashtirib borilayotganligi ularning sifat darajasi yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

3. BAHOLASH NATIJALARI ASOSIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH UCHUN KIRITILGAN TAKLIFLAR HAMDA ULARNING IJROSI

2025-yil davomida o'tkazilgan baholash natijalari asosida ichki audit xizmatlari faoliyatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, tizimli muammolarni bartaraf etish, shuningdek, ichki audit xizmatlarining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida har bir vazirlik va idorada chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqildi.

Xususan, ichki audit xizmatlari faoliyatida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi masalalar bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi:

Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi hamda faoliyatga oid ichki hujjatlarning rasmiylashtirilishi bo'yicha:

ichki audit xizmatining bo'ysunuvi va hisobdorligini vazirlik va idoraning birinchi rahbariga belgilanishini tashkil etish;

markaziy apparatda ichki audit bo'linmasining mustaqilligini ta'minlash;

ichki audit xizmati to'g'risidagi nizom va xodimlar lavozim yo'riqnomalarini ichki auditga oid amaldagi qonunchilik hujjatlariga (o'zgartirish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda) muvofiqlashtirish;

Ichki audit yillik rejasini belgilangan tartibda ishlab chiqish bo'yicha:

ichki audit yillik rejasini tizimdagi barcha ichki audit obyektlarini qamrab olgan xavf tahlili asosida ishlab chiqish hamda xavf tahlili o'tkazishni yanada takomillashtirish;

ichki audit yillik rejasini ishlab chiqishda vaqt resurslarini hisobga olish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash;

Ichki audit tadbirlarining o'tkazilishini samaradorligini oshirish bo'yicha:

ichki audit tadbirlarining o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishini ichki audit faoliyatiga oid qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash;

ichki audit tadbirlari natijalari bo'yicha chora-tadbirlar rejasini belgilangan tartibda tuzish, ijrosini ta'minlash va uning monitoringini amalga oshirish;

ichki audit tadbirlari natijalarini belgilangan muddatlarda "Davlat auditi" dasturiy kompleksiga kiritish;

ichki audit tadbirlarini o'tkazishda asosiy e'tiborni qonunchilik hujjatlarining buzilishi holatlarining oldini olishga (profilaktikaga) qaratish, bunda har chorakda bir moliyaviy masalaga (davlat xaridlari, ish haqi, qurilish-ta'mirlash, asosiy vositalar hisobi kabi) qaratilgan rejadani tashqari ichki audit tadbirlarini o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish

axborot texnologiyalaridan foydalangan holda masofaviy audit o'tkazishni takomillashtirish;

Hisob palatasi tomonidan taqdim etilgan xavf-tahlillar bo'yicha audit tadbirlarini o'tkazish to'g'risida tegishli choralar ko'rish;

ichki audit xizmati faoliyati bo'yicha hisobotlarni vazirlik va idora rahbariga taqdim etib borish hamda ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka e'lon qilish;

tizimdagi budget hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlar monitoringini yuritish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ni qarorlari bilan belgilangan samaradorlik indikatorlarining bajarilishini tahlil qilish va baholab borish;

Ichki audit xizmatida samarali kadrlar siyosatini yo'lga qo'yish bo'yicha:

vazirlik va idorada ichki audit faoliyatini amalga oshirish uchun ichki audit xizmati xodimlarining (shtat birliklarining) yetarilishini ko'rib chiqish;

xodimlar malakasini doimiy oshirib borish, shuningdek, ichki audit xizmatida mavjud vakant lavozimlarni milliy malaka sertifikatiga ega malakali kadrlar bilan to'ldirish hamda ichki audit xizmati uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish;

ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlar asosida baholash;

Ichki audit faoliyatini rivojlantirish bo'yicha boshqa masalalar:

ichki auditning xalqaro ilg'or tajribalarini o'rganish;

vazirlik (idora) tizimidagi tashkilotlarda tashkil etilgan ichki audit xizmatlari bilan hamkorlik hamda hisobdorlikni yo'lga qo'yish;

ichki audit xizmatining vazirlik va idorada "Xavflarni boshqarish" qo'mitasining ishchi organi sifatida faoliyatini yo'lga qo'yish;

4. REJALASHTIRILGAN ISHLAR

Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashni amalga oshirish bo'yicha 2026-yil davomida quyidagi ishlarni bajarish rejalashtirilmoqda:

xavf tahlili asosida 2026-yilda baholash o'tkaziladigan ichki audit xizmatlari tanlab olinadi va baholash yillik rejasi ishlab chiqiladi;

qabul qilingan ichki auditga oid qonunchilik hujjatlari va amaliyotdan kelib chiqib, ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash savolnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi;

Baholash natijasida "**past**" darajada baholangan yo'nalishlarni yaxshilash bo'yicha vazirlik va idoralar bilan muntazam va yaqindan ishlar olib boriladi hamda 2025-yilda baholash o'tkazilgan ichki audit xizmatlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi monitoringi davom ettiriladi;

ichki audit xizmatiga o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ichki va tashqi axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

ichki nazorat jarayonlarini takomillashtirish.

O'z navbatida, baholash o'tkazilgan vazirlik va idoralar tomonidan **ichki audit xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagilar amalga oshirildi:**

Transport vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Kadastr agentligi hamda Fanlar akademiyasida ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomlar va xodimlar lavozim yo'riqnomalarining ichki auditga oid amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi ta'minlandi.

Shuningdek, Madaniyat vazirligida ichki audit xizmatining birinchi rahbarga (vazirga) bo'ysunuvi ta'minlandi.

tajriba – sinov tariqasida ichki audit faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligida "Namunali ichki audit xizmati" loyihasi amalga oshirish davom ettiriladi;

Ichki audit xizmati xodimlarini Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'quv markazida malakasini oshirish choralari ko'riladi hamda faoliyatga oid milliy va xorijiy ekspertlar ishtirokida o'quv seminarlar va treninglar o'tkazilib boriladi.

Shu bilan birga, o'rta va uzoq muddatli rejalarda ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tizimini ilg'or xorij tajribalari asosida doimiy takomillashtirib borish va raqamlashtirish nazarda tutilgan.

5. YAKUNIY QISM

2025-yilda ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tizimining yo'lga qo'yilishi natijasida vazirlik va idoralarda ichki audit faoliyatini yaxshilash bo'yicha bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan:

ichki audit xizmatlari faoliyatiga oid amaldagi qonunchilik hujjatlarining mazmuni, mohiyati va ahamiyati hamda ulardan foydalanish ichki audit xizmatlari xodimlariga atroflicha yetkazildi;

ichki audit tuzilmalarida mavjud muammolar aniqlanib, bartaraf etish choralari ko'rildi;

ichki audit xizmatlariga oid ichki hujjatlarning qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi ta'minlandi;

ichki audit xizmatlarining mustaqilligi huquqiy va tashkiliy jihatdan ta'minlandi;

ichki audit xizmatlari faoliyatining xavf tahliliga yo'naltirilishi bo'yicha amaliy yordam ko'rsatildi, xavf tahlilini tashkil etish hamda baholash bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalari oshirildi;

ichki audit tadbirlarining belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi, taklif va tavsiyalarining ishlab chiqilishi va bajarilishi muhimligi bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatildi;

ichki audit xizmatlari xodimlarini, bevosita baholash jarayonida malakasini oshirish choralari ko'rildi.

Shu bilan birga, ichki audit xizmatlarini baholash natijalaridan kelib chiqib, amaldagi ichki audit xizmatlari faoliyatiga oid Hukumat qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi:

ichki audit xizmatlari eng kam shtat birliklari sonini aniqlash metodikasi va ichki audit xizmati rahbarlarini lavozimdan ozod etishni Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishish tartibi belgilandi;

ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashda foydalaniladigan savolnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi;

ichki audit milliy malaka sertifikatini berish va sertifikat egalarining malakasini oshirish jarayoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

VAZIRLIK VA IDORALAR KESIMIDA BAHOLASH NATIJALARI

Transport vazirligi

Transport vazirligida Ichki audit xizmati faoliyatini baholash 2025-yilning 17-martidan 28-martiga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra, Ichki audit xizmati faoliyatining **sifat darajasi 62,2 foiz ko'rsatkich bilan "past" darajada baholandi.**

Baholash natijasida, ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi (**12 balldan 8 ball (67%)**), ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi (**16 balldan 6 ball (38%)**), ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi (**28 balldan 22 ball (79%)**), chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (**16 balldan 4 ball (25%)**) yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**

1. Ichki audit xizmati faoliyatini amalga oshirish bo'yicha tegishli hujjatlar ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit xizmati nizomi **namunaviy nizomga muvofiq ishlab chiqilmagan.** Jumladan, xizmatning nizomida:

ichki audit xizmati **faoliyatiga aralashuvlarga yo'l qo'yilmaslik** hamda unga **o'z faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatga oid vazifalarning yuklanishiga cheklov(lar);**

ichki audit tadbirlarida ishtirok etishga yoki ushbu tadbirlarni o'tkazishga yo'l qo'yilmaslik holatlari bo'yicha talablar (manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmaslik va oldini olish choralarini ko'rish) **belgilanmagan.**

2. Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha 2024-yilning rejasini ishlab chiqish uchun o'tkazilgan xavf tahliliga **barcha ichki audit obyektlari qamrab olinmagan.**

Shu bilan birga, o'tkazilgan xavf tahliliga ko'ra **xavf darajasi yuqori bo'lgan ichki audit obyektlari yillik rejaga to'liq kiritilmagan.** Yillik rejani ishlab chiqishda **mavjud vaqt resurslari hisobga olinmagan.**

3. Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit tadbirida aniqlangan qonunbuzilish holatlarida **jinoyat alomati mavjud bo'lganda bu to'g'risida birinchi rahbarga xabardor qilinmagan**

Shuningdek, vazirlikning **budjet dasturlari ijrosi belgilangan yo'nalishlarda baholanmagan** hamda baholash natijalari bo'yicha **taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmagan.**


4. Chora-tadbirlar rejasining ichki audit obyektlari tomonidan bajarilishi yo'nalishi bo'yicha 2024-yilda o'tkazilgan **ichki audit tadbirlari natijalari yuzasidan chora-tadbirlar rejasi tuzilmagan.**

Shu bilan birga, 2024-yil davomida **qonunchilik hujjatlarining buzilishi holatlarining oldini olish (profilaktika) amalga oshirilmagan.**

Bundan tashqari, 2024-yil uchun tasdiqlangan **yillik reja 25 foizga bajarilgan.**

Baholash natijasiga ko'ra, vazirlikning ichki audit xizmati (ichki) nizomi Ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq holda qayta tasdiqlandi. Ichki audit tadbirlarining o'tkazilishi, natijalarining rasmiylashtirilishi hamda audit tadbirlari natijalari bo'yicha chora-tadbirlar rejasining ishlab chiqilishi Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasiga muvofiq holda yo'lga qo'yildi.

Transport vazirligining ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari



- ① Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ② Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- ③ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi
- ④ Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ⑤ Ichki audit xizmati faoliyatiga alohida savollar
- ⑥ Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ⑦ Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligida Ichki audit bo'limi faoliyatini baholash 2025-yilning 28-aprelidan 8-mayiga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra, Ichki audit bo'limi faoliyatining **sifat darajasi 64,3 foiz ko'rsatkich bilan "past" darajada baholandi.**

Baholash natijasida, ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi (**16 balldan 3 ball (19%)**), ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi (**28 balldan 17 ball (61%)**), chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (**16 balldan 9 ball (56%)**), ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar (**14 balldan 6 ball (43%)**) yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**

1. Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha 2024-yilning rejasi **xavf tahlili o'tkazilmagan holda ishlab chiqilgan** va shu sababli hisobot davrida **rejadan tashqari audit tadbirlarini o'tkazish sezilarli darajada ko'paygan.**

Shuningdek, yillik rejani ishlab chiqishda **mavjud vaqt resurslari hisobga olinmagan.**

2. Ichki audit tadbirlarining ichki auditga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha **ichki audit tadbirlari uchun dastur ishlab chiqilmagan (yoki belgilangan tartibda ishlab chiqilmagan)** va o'tkazilgan ichki audit tadbirlarining **natijalari "Davlat auditi" dasturiga kiritilmagan** hamda bo'lim faoliyati bo'yicha **hisobotlar birinchi rahbarga kiritilmagan.**

Bundan tashqari, vazirlikning **budjet dasturlari ijrosi belgilangan yo'nalishlarda baholanmagan** hamda baholash natijalari bo'yicha **taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmagan.**

3. Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit bo'limi tomonidan 2025-yilda o'tkazilgan ichki audit tadbirlari natijalari bo'yicha **chora-tadbirlar rejasining bajarilishi monitoringi yo'lga qo'yilmagan.**

Shuningdek, 2024-yil uchun tasdiqlangan **yillik reja 22 foizga bajarilgan.**

4. Ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar yo'nalishi bo'yicha ichki audit bo'limiga o'z faoliyatini amalga oshirish uchun **ichki va tashqi axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyati yaratilmagan.**


Vazirlik tizimdagi budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa hamda tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha **o'tkazilgan audit (nazorat) ishlariga oid hujjatlar monitoringi yuritilmagan.**

Bundan tashqari, ichki audit bo'limi faoliyati bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan **oldingi baholashda berilgan taklif va tavsiyalar bajarilmagan.**

Baholash natijasiga ko'ra, ichki audit bo'limi tomonidan yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi bo'yicha tushuntirish berildi. Shuningdek, ichki audit tadbirlarining o'tkazilishi va natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi monitoringi Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasiga muvofiq holda yo'lga qo'yildi.

Vazirlikning budjet dasturlari ijrosi bo'yicha hisobotlarni belgilangan barcha yo'nalishlarda baholanishi va natijalari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Ekologiya vazirligining ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari



- ① Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ② Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ③ Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- ④ Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ⑤ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi
- ⑥ Ichki audit xizmati faoliyatiga alohida savollar
- ⑦ Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti faoliyatini baholash 2025-yilning 7-aprelidan 18-apreliga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra, departamentning **sifat darajasi 66,7 foiz ko'rsatkich bilan "past" darajada baholandi.**

Baholash natijasida, ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi (**12 balldan 8 ball (67%)**), ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi (**16 balldan 4 ball (25%)**), chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (**16 balldan 6 ball (38%)**), ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar (**12 balldan 10 ball (83%)**), yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**

1. Ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi yo'nalishi bo'yicha departament nizomi va xodimlar lavozim yo'riqnomalarida **namunaviy nizomga muvofiq bo'lmagan bandlari mavjud.** Jumladan, ushbu hujjatlarda **tekshirish va nazorat tadbirlari bilan bog'liq vazifa va funksiyalar**, shuningdek, vazirlikda murojaatlar bilan ishlash bo'yicha **"Ishonch telefoni" faoliyatini tashkil etish vazifasi belgilangan.**

Shu bilan birga, departamentning nizomida unga o'z faoliyatidan tashqari **boshqa faoliyatga oid vazifalarning yuklanishiga cheklov(lar) belgilanmagan.**

2. Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha 2024-yilning rejasini ishlab chiqish uchun o'tkazilgan xavf tahliliga **barcha ichki audit obyektlari qamrab olinmagan.**

Shu bilan birga, o'tkazilgan xavf tahliliga ko'ra **xavf darajasi yuqori bo'lgan ichki audit obyektlari yillik rejaga to'liq kiritilmagan.** Yillik rejani ishlab chiqishda mavjud vaqt resurslari hisobga olinmagan.

Bundan tashqari, hisobot davrida o'tkazilgan audit tadbirlari tarkibida **rejadan tashqari tadbirlar ulushi 20 foizdan ortiq qismni tashkil qilgan.**

3. Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yo'nalishi bo'yicha departament tomonidan 2024-yilda o'tkazilgan ichki audit tadbirlari natijalari bo'yicha **chora-tadbirlar rejasi belgilangan tartibda tuzilmagan** hamda ularning bajarilishi bo'yicha **monitoring yuritilmagan.**

Shu bilan birga, 2024-yil uchun tasdiqlangan **yillik reja 63 foizga bajarilgan.**

Bundan tashqari, departamentning barcha xodimlariga masofaviy audit o'tkazish uchun **"O'zASBO" dasturiy majmuasidan foydalanishga imkoniyat yaratilmagan (login va parollar olinmagan).**


4. Ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar yo'nalishi bo'yicha fuqarolar ishtirokidagi audit tizimi bo'yicha **nazorat obyektlari "Davlat auditi" dasturiy kompleksiga to'liq kiritilmagan.**

Baholash natijasiga ko'ra, vazirlikning ichki audit xizmati (ichki) nizomi hamda xodimlar lavozim yo'riqnomalari Ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq holda qayta tasdiqlandi.

Shuningdek, departamentning yillik rejasini vazirlikning barcha ichki audit obyektlarini qamrab olgan xavf tahlili asosida ishlab chiqish va bunda mavjud vaqt resurslarini inobatga olish bo'yicha tushuntirish berildi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda masofaviy audit qamrovini oshirish maqsadida, departamentning barcha xodimlariga **"O'zASBO" dasturiy majmuasidan foydalanish uchun login va parollar olinishi** lozimligi bildirildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari



- ① Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ② Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ③ Ichki audit xizmati faoliyatiga alohida savollar
- ④ Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ⑤ Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- ⑥ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi
- ⑦ Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi

Kadastr agentligi

Kadastr agentligida Ichki audit bo'limi faoliyatini baholash 2025-yilning 24-noyabridan 5-dekabriga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra, bo'limning **sifat darajasi 72,3 foiz ko'rsatkich bilan "o'rta" darajada baholandi.**

Baholash natijasida, chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (**16 balldan 7 ball (44%)**), ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi (**12 balldan 6 ball (50%)**), ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi (**22 balldan 15 ball (68%)**) hamda ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar (**10 balldan 7 ball (70%)**), yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**

1. Ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit bo'limi nizomida Ichki audit xizmati to'g'risidagi **namunaviy nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar belgilanmagan.**

Shuningdek, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarida xodimning **vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda javobgarligi belgilab o'tilmagan.**

2. Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha bo'lim tomonidan ichki audit tadbirlari uchun belgilangan tartibda **dastur ishlab chiqilmagan**, shuningdek, **ichki audit tadbirlari** "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi"da **belgilangan muddatlardan (20 ish kunidan) ko'proq muddatlarda o'tkazilib kelingan.**

Shu bilan birga, ichki audit bo'limi faoliyati natijalari yuzasidan **hisobotlar birinchi rahbarga** (Agentlik direktoriga) **kiritib borilmagan.**

3. Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yo'nalishi bo'yicha bo'lim tomonidan Davlat kadastrlari palatasining tashkilotlarida o'tkazilgan **ichki audit tadbirlari natijasi** bo'yicha belgilangan tartibda **chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilmagan.**


Shu bilan birga, bo'limning barcha xodimlariga masofaviy audit o'tkazish uchun **"O'zASBO" dasturiy majmuasidan foydalanishga imkoniyat yaratilmagan (login va parollar olinmagan).**

4. Ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar yo'nalishi bo'yicha bo'lim tomonidan agentlik tizimidagi budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan **nobudjet muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan audit (nazorat) ishlariga oid hujjatlar monitoringi yuritib kelinmagan.**

Baholash natijasiga ko'ra, ichki audit bo'limining nizomi hamda xodimlar lavozim yo'riqnomalari Ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda qayta tasdiqlandi.

Shuningdek, ichki audit tadbirlari natijasi bo'yicha belgilangan tartibda chora-tadbirlar rejasining tuzilishi, ijrosining ta'minlanishi hamda bajarilishi bo'yicha monitoring yuritilishi yuzasidan uslubiy yordamlar ko'rsatildi.

Kadastr agentligining ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari



- ① Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ② Ichki audit xizmatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ③ Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi
- ④ Ichki audit xizmatiga oid alohida savollar
- ⑤ Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ⑥ Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- ⑦ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi

Yoshlar ishlari agentligi

Yoshlar ishlari agentligida Ichki audit xizmati faoliyatini baholash 2025-yilning 11-avgustidan 15-avgustiga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra Ichki audit xizmati faoliyatining **sifat darajasi 75,7 foiz ko'rsatkich bilan "o'rta" darajada baholandi.**

Baholash natijasida, ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi (**12 balldan 6 ball (50%)**), ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi (**28 balldan 19 ball (68%)**) hamda ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi (**16 balldan 12 ball (75%)**) yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**

1. Ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit xizmati nizomida Ichki audit xizmati to'g'risidagi **namunaviy nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar belgilanmagan.**

Shuningdek, lavozim yo'riqnomasida xodimning **vazifa va funksiyalari namunaviy nizomga muvofiq holda belgilanmagan.**

2. Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha xizmatning 2025-yil uchun yillik rejasini ishlab chiqishda, o'tkazilgan xavf tahliliga ko'ra **xavf darajasi yuqori bo'lgan ichki audit obyektlari yillik rejaga to'liq kiritilmagan.**

Shuningdek, hisobot davrida o'tkazilgan audit tadbirlari tarkibida **rejadan tashqari tadbirlar ulushi 20 foizdan ortiq qismni tashkil qilgan.**

3. Ichki audit tadbirlarining ichki audit faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'tkazilishi yo'nalishi bo'yicha xizmat tomonidan 2024-2025-yillarda o'tkazilgan rejadan tashqari ichki audit tadbirlari **natijalari "Davlat auditi" dasturiy kompleksiga kiritilmagan.**

Shuningdek, vazirlikning **budget dasturlari ijrosi belgilangan yo'nalishlarda baholanmagan** hamda baholash natijalari bo'yicha **taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmagan.**


4. Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit tadbirlari natijasi bo'yicha tuzilgan **chora-tadbirlar rejasida** ichki audit tadbirida bildirilgan **ayrim taklif va tavsiyalar aks ettirilmagan.**

Bundan tashqari, ichki audit xizmatining 2024-yil uchun tasdiqlangan **yillik rejasining bajarilish ko'rsatkichi** hisobot davri yakuniga ko'ra **38 foizni tashkil etgan.**

Baholash natijasiga ko'ra, ichki audit xizmatining va nizomi va lavozim yo'riqnomasini Ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda muvofiqlashtirib borish yuzasidan uslubiy yordamlar ko'rsatildi.

Shuningdek, agentlikning budget dasturlari ijrosi bo'yicha hisobotlarni belgilangan barcha yo'nalishlarda baholanishi va natijalari yuzasidan budget mablag'laridan yanada samarali va natijali foydalanishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Yoshlar ishlari agentligining ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari



- ① Ichki audit xizmatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ② Ichki audit xizmatiga oid alohida savollar
- ③ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi
- ④ Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ⑤ Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi
- ⑥ Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ⑦ Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi

Madaniyat vazirligi

Madaniyat vazirligida Ichki audit bo'limi faoliyatini baholash 2025-yilning 19-mayidan 30-mayiga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra Ichki audit bo'limi faoliyatining **sifat darajasi 81,3 foiz ko'rsatkich bilan "o'rta" darajada baholandi.**

Baholash natijasida, ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi, mustaqilligi hamda resurslar bilan ta'minlanishi (**18 balldan 14 ball (78%)**), ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi (**16 balldan 11 ball (69%)**), ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi (**28 balldan 21 ball (75%)**), ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar (**14 balldan 11 ball (79%)**) yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**

1. Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi, mustaqilligi hamda resurslar bilan ta'minlanishi yo'nalishi bo'yicha vazirlikda ichki audit bo'limining **bo'ysunuvi va hisobdorligi birinchi rahbarga belgilanmagan.**

2. Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha 2024-yil uchun yillik rejani ishlab chiqishda, o'tkazilgan xavf tahliliga ko'ra **xavf darajasi yuqori bo'lgan ichki audit obyektlari yillik rejaga to'liq kiritilmagan.**

Shu bilan birga, hisobot davrida o'tkazilgan audit tadbirlari tarkibida **rejadan tashqari tadbirlar ulushi 20 foizdan ortiq qismni tashkil qilgan.**

3. Ichki audit tadbirlarining ichki audit faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'tkazilishi va natijalari rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit bo'limi tomonidan **ichki audit tadbirlari uchun dasturlar ishlab chiqilmagan.**


Shuningdek, vazirlikning **budjet dasturlari ijrosi belgilangan yo'nalishlarda baholanmagan** hamda baholash natijalari bo'yicha **taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmagan.**

4. Ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar yo'nalishi bo'yicha ichki audit bo'limi faoliyati bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan **oldingi baholashda berilgan taklif va tavsiyalar bajarilmagan.**

Baholash natijasiga ko'ra, vazirlik markaziy apparati tuzilmasida ichki audit xizmatining birinchi rahbarga (vazirga) bo'ysunuvi ta'minlandi.

Shuningdek, vazirlikning budjet dasturlari ijrosi bo'yicha hisobotlarni belgilangan barcha yo'nalishlarda baholanishi va natijalari yuzasidan budjet mablag'laridan yanada samarali va natijali foydalanishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Madaniyat vazirligining ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari



- 1 Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi
- 2 Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- 3 Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- 4 Ichki audit xizmati faoliyatiga alohida savollar
- 5 Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- 6 Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- 7 Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi

Fanlar akademiyasi

Fanlar akademiyasida Ichki audit bo'limi faoliyatini baholash 2025-yilning 3-noyabridan 14-noyabriga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra Ichki audit bo'limi faoliyatining **sifat darajasi 83,8 foiz ko'rsatkich bilan "o'rta" darajada baholandi.**

Baholash natijasida, ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi **(16 balldan 9 ball (56%))**, ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi **(12 balldan 8 ball (67%))** hamda ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi va faoliyati samaradorligining baholanishi **(12 balldan 10 ball (83%))** yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**

1. Ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit bo'limining nizomida Ichki audit xizmati to'g'risidagi **namunaviy nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar belgilanmagan.**

Shuningdek, xodimlar **lavozim yo'riqnomalari** ichki auditga oid qonunchilik hujjatlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda qayta **yangilab borilmagan.**

2. Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit bo'limi tomonidan 2025-yilning ish rejasini ishlab chiqishda **xavf tahlili belgilangan tartibda o'tkazilmagan**, shuningdek, xavf tahliliga Akademiya tizimidagi **ichki audit obyektlari to'liq qamrab olinmagan.**


Shu bilan birga, hisobot davrida o'tkazilgan audit tadbirlari tarkibida **rejadan tashqari tadbirlar ulushi 20 foizdan ortiq qismni tashkil qilgan.**

3. Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi va faoliyati samaradorligining baholanishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit bo'limining 2025-yil III chorak **faoliyati samaradorligi 70 foiz "qoniqarli" ko'rsatkichni qayt etgan.**

Baholash natijasiga ko'ra, ichki audit bo'limining nizomi va xodimlar lavozim yo'riqnomalarini Ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda muvofiqlashtirib borish yuzasidan uslubiy yordamlar ko'rsatildi.

Shuningdek, ichki audit bo'limining yillik rejasini Akademiya tizimidagi barcha ichki audit obyektlarini qamrab olgan xavf tahlili asosida ishlab chiqish va bunda bo'limning mavjud vaqt resurslarini inobatga olish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha tushuntirish berildi.

Fanlar akademiyasining ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari



- ① Ichki audit xizmatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ② Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi
- ③ Ichki audit xizmatiga oid alohida savollar
- ④ Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ⑤ Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ⑥ Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- ⑦ Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi

Texnik jihatdan tartibga solish agentligida Ichki audit xizmati faoliyatini baholash 2025-yilning 22-sentabridan 3-oktabriga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra Ichki audit xizmati faoliyatining **sifat darajasi 86,1 foiz ko'rsatkich bilan "o'rta" darajada baholandi.**

Baholash natijasida, chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (**16 balldan 8 ball (50%)**), ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi va faoliyati samaradorligining baholanishi (**12 balldan 10 ball (83%)**) hamda ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar (**14 balldan 12 ball (86%)**) yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**

1. Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit tadbirlari natijasi yuzasidan **chora-tadbirlar rejasi belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan.**

Shuningdek, ichki audit xizmati tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi bo'yicha **monitoring yuritilmagan** hamda uning **ijro etilishi bo'yicha ma'lumotlar mavjud emas.**

Bundan tashqari, ichki audit xizmatining 2025-yil uchun tasdiqlangan **yillik rejasining bajarilish ko'rsatkichi** joriy yilning I yarim yillik hisobot davri yakuniga ko'ra **75 foizni tashkil etgan.**


2. Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi va faoliyati samaradorligining baholanishi yo'nalishi bo'yicha ichki audit xizmatining 2025-yil II chorak **faoliyati samaradorligi 10 foiz "qoniqarsiz" ko'rsatkichni qayt etgan.**

3. Ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar yo'nalishi bo'yicha ichki audit bo'limi faoliyati bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan **oldingi baholashda berilgan taklif va tavsiyalar bajarilmagan.**

Baholash natijasiga ko'ra, ichki audit tadbirlari natijasi bo'yicha belgilangan tartibda chora-tadbirlar rejasining tuzilishi, ijrosining ta'minlanishi hamda bajarilishi bo'yicha monitoring yuritilishi yuzasidan uslubiy yordamlar ko'rsatildi.

Shuningdek, har chorakda bir moliyaviy masalaga (davlat xaridlari, ish haqi, qurilish-ta'mirlash, asosiy vositalar hisobi kabi) qaratilgan rejadan tashqari ichki audit tadbirlarini o'tkazish orqali tizimli muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish amaliyotini yo'lga qo'yish bo'yicha tushuntirishlar berildi.

**Texnik jihatdan tartibga solish agentligining
ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari**



- ① Ichki audit xizmatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ② Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi
- ③ Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- ④ Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ⑤ Ichki audit xizmatiga oid alohida savollar
- ⑥ Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ⑦ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi

“O’zarxiv” agentligi

“O’zarxiv” agentligida Ichki audit xizmati faoliyatini baholash 2025-yilning 13-oktabridan 24-oktabriga qadar amalga oshirildi. Unga ko’ra Ichki audit xizmati faoliyatining **sifat darajasi 88,7 foiz ko’rsatkich bilan “o’rta” darajada baholandi.**

Baholash natijasida, chora-tadbirlar rejasining bajarilishi **(16 balldan 11 ball (69%),** ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o’tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi **(22 balldan 19 ball (86%))** hamda ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi, mustaqilligi hamda resurslar bilan ta’minlanishi **(18 balldan 16 ball (89%))** yo’nalishlari bo’yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo’lgan holatlar aniqlandi:**

1. Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi, mustaqilligi hamda resurslar bilan ta’minlanishi yo’nalishi bo’yicha **ichki audit xizmati** agentlikning markaziy apparatida **mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etilmagan.**

2. Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o’tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi yo’nalishi bo’yicha ichki audit tadbirlari natijasi bo’yicha **hisobotlarda ichki audit xizmatining taklif va tavsiyalari bildirilmagan.**


Shuningdek, ichki audit xizmati faoliyati bo’yicha **hisobotlar** ommaviy axborot vositalari orqali **jamoatchilikka muntazam ravishda e’lon qilib borilmagan.**

3. Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yo’nalishi bo’yicha ichki audit tadbirlari natijasi yuzasidan **chora-tadbirlar rejasi belgilangan tartibda ishlab chiqilmagan** hamda uning ijrosi bo’yicha **monitoring yuritilmagan.**

Baholash natijasiga ko’ra, agentlikda ichki audit xizmati faoliyatini amaldagi ichki auditga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etish yuzasidan uslubiy tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, ichki audit tadbirlari natijasi bo’yicha chora-tadbirlar rejasining belgilangan tartibda tuzilishi, ijrosining ta’minlanishi hamda bajarilishi bo’yicha monitoring yuritilishi yuzasidan amaliy yordamlar ko’rsatildi.

**“O‘zarxiv” agentligining ichki audit xizmati
faoliyatini baholash natijalari**



- ① Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ② Ichki audit xizmatiga oid alohida savollar
- ③ Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- ④ Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi
- ⑤ Ichki audit xizmatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ⑥ Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ⑦ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi

Qishloq xo'jaligi vazirligi

Qishloq xo'jaligi vazirligida Ichki audit boshqarmasi faoliyatini baholash 2025-yilning 30-iyunidan 11-iyuliga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra ichki audit boshqarmasi faoliyatining **sifat darajasi 91,6 foiz ko'rsatkich bilan "yuqori" darajada baholandi.**

Baholash natijasiga ko'ra, vazirlikda ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi (**12 balldan 12 ball (100%)**), ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi (**28 balldan 28 ball (100%)**), ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi va faoliyati samaradorligining baholanishi (**12 balldan 12 ball (100%)**), ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi, mustaqilligi hamda resurslar bilan ta'minlanishi (**18 balldan 17 ball (94%)**) yo'nalishlari bo'yicha **ishlar yetarli darajada amalga oshirilganligi ma'lum bo'ldi.**

O'z navbatida, baholashda ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi (**16 balldan 12 ball (75%)**) hamda chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (**16 balldan 14 ball (88%)**) yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**


1. Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha 2025-yil uchun yillik rejani ishlab chiqishda **xavf tahliliga** vazirlik tizimidagi **ichki audit obyektlari to'liq qamrab olinmagan.**

Shuningdek, boshqarma tomonidan 2024-yil davomida o'tkazilgan ichki audit tadbirlari tarkibida **rejadan tashqari tadbirlar ulushi 20 foizdan ortiq qismni tashkil qilgan.**

2. Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yo'nalishi bo'yicha vazirlikning budjet dasturlari ijrosi bo'yicha ichki audit tadbirlari natijaci bo'yicha **chora-tadbirlar rejasiga** ichki audit tadbirlarida bildirilgan **taklif va tavsiyalarining ayrimlari kiritilmagan.**

Baholash natijasiga ko'ra, har chorakda bir moliyaviy masalaga (davlat xaridlari, ish haqi, qurilish-ta'mirlash, asosiy vositalar hisobi kabi) qaratilgan rejadan tashqari ichki audit tadbirlarini o'tkazish orqali tizimli muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish amaliyotini yo'lga qo'yish bo'yicha uslubiy yordam berildi.

Qishloq xo'jaligi vazirligining ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari



- ① Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ② Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ③ Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- ④ Ichki audit xizmatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ⑤ Ichki audit xizmatiga oid alohida savollar
- ⑥ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi
- ⑦ Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi

Adliya vazirligi

Adliya vazirligida Ichki audit bo'limi faoliyatini baholash 2025-yilning 9-iyunidan 20-iyuniga qadar amalga oshirildi. Unga ko'ra ichki audit bo'limi faoliyatining **sifat darajasi 92,4 foiz ko'rsatkich bilan "yuqori" darajada baholandi.**

Baholash natijasiga ko'ra, vazirlikda ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi, mustaqilligi hamda resurslar bilan ta'minlanishi (**18 balldan 18 ball (100%)**), ichki audit xizmati faoliyatiga oid ichki hujjatlarning qabul qilinishi (**12 balldan 12 ball (100%)**), chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (**16 balldan 15 ball (94%)**) hamda ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi va faoliyati samaradorligining baholanishi (**12 balldan 11 ball (92%)**) yo'nalishlari bo'yicha **ishlar yetarli darajada amalga oshirilganligi ma'lum bo'ldi.**


O'z navbatida, baholashda ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi (**16 balldan 14 ball (88%)**), ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishi (**28 balldan 25 ball (89%)**), yo'nalishlari bo'yicha **quyidagi takomillashtirilishi lozim bo'lgan holatlar aniqlandi:**

1. Ichki audit yillik rejasining xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi va rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha 2024-yil davomida o'tkazilgan audit tadbirlari tarkibida **rejadan tashqari tadbirlar ulushi 20 foizdan ortiq qismni tashkil qilgan.**

2. Ichki audit tadbirlarining ichki audit faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'tkazilishi va natijalari rasmiylashtirilishi yo'nalishi bo'yicha vazirlikning budget dasturlari ijrosi bo'yicha **hisobotlar belgilangan yo'nalishlarda baholanmagan** hamda baholash natijalari bo'yicha **taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmagan.**

Baholash natijasiga ko'ra, vazirlikning budget dasturlari ijrosi bo'yicha hisobotlarni belgilangan barcha yo'nalishlarda baholanishi va natijalari yuzasidan budget mablag'laridan yanada samarali va natijali foydalanishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Adliya vazirligining ichki audit xizmati faoliyatini baholash natijalari



- ① Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi
- ② Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi
- ③ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi
- ④ Ichki audit xizmati xodimlarining malaka darajasi
- ⑤ Ichki audit xizmati faoliyatiga alohida savollar
- ⑥ Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi
- ⑦ Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi